

YOSHLARNING TA'LIM VA TARBIYASIDA OILA , MAHALLA , TA'LIM MUASSASALARINING O'ZARO UYG'UNLIGI

Umirova Mohinur Mirzo qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Muallif ushbu maqolada har bir yosh avlodning ta'limga va tarbiyasida oila , mahalla ta'limga muassasalarining tutgan o'rni haqida fikr yuritadi .*

Kalit so'zlar: *oila , tarbiya , sport , kitobxonlik , ixtiro , bilim*

Har bir yosh avlod misoli bir niholga o'xshaydi . Niholni yaxshi parvarishlab , unga mehr bersagina u kelajakda meva hosil qilib , o'z samarasini ko'rsatadi . Bolaga ham yoshligidanoq ta'limga va tarbiyani uyg'unlikda berib borilsa ,maqsadga muvofiq bo'ladi .Bola tarbiyasida oila , mahalla va ta'limga muassasalarining o'rni beqiyosdir .Bola dastavval asosiy tarbiyani oiladan oladi .Ota-onaning bolasiga bo'lgan e'tibori nihoyatda katta bo'lmg'i lozim.Chunki bola ota-onasi va yaqin qarindoshlaridan dastlabki va asosiy tarbiyani oladi .Bola tarbiyasida yo'l qo'yilgan kichik bir xato ham uning kelajagiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi albatta .Har bir ota-onan bolasingining tarbiyasiga bafarq bo'lmasligi kerak .Xalqimizda bir ajoyib naql bor " Qush -uyasida ko'rganini qiladi " .Darhaqiqat agar har bir ota-onan o'z farzandiga o'zlarining ijobjiy hislatlari bilan namuna bo'lishsa ,bola ongida ham ana shunday ijobjiy hislatlar shakllana boshlaydi .Agar ota-onalar farzandining taqdiriga befarq bo'lsa ,bola ongida bo'shliq paydo bo'lib ,turli yot g'oyalarga berilib ketishi mumkin .

Yoshlarning ta'limga -tarbiyasiga mahalla kengashi ham e'tibor berishi lozim .Xalqimizda bir ajoyib naql bor "Bir bolaga yetti mahalla ota-onan " .Mahalla faollari , nuroniylar o'sib kelayotgan yosh avlodga o'z nasihatlarini ,hayotdan orttirgan tajribalarini ular bilan bo'lishsa , ushbu qimmatli ma'lumotlar ularning ertangi kelajagi uchun dasturamal bo'lib xizmat qiladi desak adashmagan bo'lamiz . Yoshlarni bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish bo'yicha har bir mahallada targ'ibot ishlari olib borilishi lozim .

Mahalladagi yoshlar o'rtasida turli sport musobaqalarini o'tkazish .Sport musobaqalarini tashkillashtirish orqali , yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini rivojlanтиrish va ularning bo'sh vaqtalarini samarali o'tkazishga erishish mumkin . Buyuk alloma ulug' munajjim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek bobomizning quyidagi qarashlari tahsinga sazovordir .' "Farzandingiz sog'lom va baquvvat bo'lib o'sishini istasangiz , uning kichik yoshidan jismoniy mashqlar bilan shug'ullantiring va chiniqtiring " degan edi .Albatta sog'lom va bilimli yoshlar yurt tayanchi vatan kelajagidir .

Mahallalarda, oilalar o'rtasida ham kitobxonlikni targ'ib qilish .Kitobxonlik kechalarini tashkillashtirish .' "Eng faol kitobxon oila " nominatsiyasi bo'yicha

g'oliblarni aniqlash va boshqalarni keltirishimiz mumkin . Ushbu jarayonni amalga oshirish orqali ota-onalar o'rta-sida kitobga bo'lgan mehrni yanada oshirish , oila jamligini va faolligini mustahkamlashdan iborat . Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev o'z nutqlarida quyidagi fikrlarni keltiradilar ."Kitob o'qigan , o'zini ustida ishlagan odamda qanot bo'ladi .Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi . ' "Kattalarga" xushomad qilmaydi .Uning bilimi bor, ilmi bor .Mana nima uchun kitob o'qinglar deymiz .Kitob o'qisangiz savol berishni bilasiz " kabi fikrlarni bildiradilar .Darhaqiqat ko'p kitob o'qigan insonning fikrlash doirasi ham o'zgalarnikidan ajralib turadi .Kitob mutolaasini sevadigan insonlarning nutqi ravon , fikri tiniq bo'ladi .Ular oq-qoran , yaxshi -yomonni farqlay bilishadi .

Yoshlar o'rta-sida yaratuvchanlik qobiliyatini oshirish maqsadida mahallalarda har oyda bir marotaba "Eng yaxshi loyiha " targ'ibotini olib borish . Eng dolzarb va har tomonlama yetuk loyiha va g'oya mualliflarini moddiy jihatdan rag'batlantirish .Ushbu targ'ibotni amalga oshirish orqali yoshlar o'rta-sida sog'lom raqobat vujudga keltirish , yoshlar faolligini oshirish va o'z ustilarida ko'proq ishlashni shakllantirishdan iborat .

O'quvchi yoshlar ota -onalar o'rta-sida huquqiy savodxonlikni oshirish maqsadida mahallalarda turli targ'ibot , tashviqot ishlarini olib borish .Har oyda yoki yilda bir marotaba turli so'rovnomalar va viktorinalar orqali ota-onalar va yoshlarning huquqiy bilim va ko'nikmalarini aniqlash va ularni boyitib borish .Ushbu jarayonga mas'uliyat bilan yondashib , amalga oshirilsa o'zining yuksak natijasini ko'rsatishi shubhasiz .Chunki tartib , qoidalarga va qonunlarga amal qilgan jamiyatning ertasi porloq .Buyuk sarkarda bobomiz Amir Temur aytganidek "Kuch-adolatda" dir .

Tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida , mahalla yoshlari o'rta-sida " Eng yosh tadbirkor " tanlovini joriy etish . Ushbu tanlovni joriy etish orqali yurtimizda yosh hunarmandlar sonini ko'paytirishga erishish mumkin . Tabiiyki yurtimizda hunarmandlar soni ortsu, aholi turmush tarzi ham yanada yaxshilanadi . Kambag'allik ko'rsatkichi pasayishiga erishiladi . Ish o'rinalar soni ortadi . Yurtimizda ham tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ko'plab qator islohotlar amalga oshirilmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi . Bir so'z bilan aytganda , yoshlar ta'lim va tarbiyasida mahallaning o'rni beqiyosdir .

Ta'lim muassasalarida ham ko'plab yangiliklar kiritish orqali , tubdan isloq qilinsa , ta'lim sifati ham yoshlar bilim olish shijoati ham ortadi .Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish tizimi zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilsa , ko'zlangan maqsadga erishish oson bo'ladi . Chunki maktab asosiy bilim o'chog'idir .Har bir o'sib kelayotgan yosh avlod asosiy bilim va ko'nikmalarini maktabdan oladi .Olgan ta'lim va tarbiyasi har bir bola uchun tayanch vazifasini bajaradi .Umumiy o'rta ta'lim maktablarida barcha fanlarni a'lo baholarda o'zlashtirayotgan o'quvchilarni moddiy jihatdan turli rag'batlantirishlar orqali

ularning o'z ustilarida ko'proq ishlashlarini ta'minlashga erishish mumkin .O'quvchi yoshlar o'rtasida turli ko'rik tanlovlari , sport musobaqalari o'tkazilsa , yoshlarning bo'sh vaqtleri mazmunli o'tadi . Maktablarda o'tilayotgan fanlarni bir-biri bilan integratsiyalashtirgan holda o'tilsa , o'quvchilar barcha fanlarni birdek o'zlashtirishlariga erishish mumkin . O'sib kelayotgan har bir yosh avlod vatan kelajagi va umidi hisoblanadi .Yoshlar bilimli va shijoatli bo'lsagina yurt taraqqiy etadi , yanada yuksaladi . Yurtimizda yoshlar siyosatiga oid qator islohotlar amalga oshirilmoqda .Turli sohalarda keng imkoniyatlar yaratilmoqda .Yurtning ertasi bo'lgan yoshlar ushbu yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda , doimiy izlanishda bo'lmg'i lozim .Maktablarda o'quvchilarga biror –bir kasb –korni egallashlari uchun mustahkam poydevor yaratish ,keljakka bo'lgan ishonchlarini oshirish muhim ahamiyatga ega . Shu bilan bir qatorda tarbiyasi o'g'ir bolalarning ota-onalari bilan ishlash oilalarga psixologik yordam berish orqali ularni ijobjiy tomonga yo'naltirishga erishish mumkin . O'quvchi yoshlarni mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatish ularni istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash muhimdir .Ulug' mutafakkir bobomiz Mahmudho'ja Behbudiyning ilm haqida quyidagi fikrlarni bildirgan ."Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir . Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'ladi ". Darhaqiqat ilmi millatning ertasi porloq , kelajagi buyukdir .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Karimov " Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch " asari

Sh.M. Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz "

Xamidullo Saliyev "Jismoniy tarbiya va sport ". O'quv qo'llanma .

4.J. Hasanboyev , X.A.To'raqulov , I .Sh .Alqarov , N.O' .Usmanov "Pedagogika " Toshkent -2020 .